

## О‘ЗBEK XALQ IJRO SAN‘ATIDA TURKUMLARNING SHAKLLANISHI VA RAQS MAKTABLARI TARIXI

*Qurbonov Dilshodbek Norxidir o‘g‘li*

*Termiz Davlat Universiteti*

*Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil  
etish hamda boshqarish ta‘lim yo‘nalishi talabasi*

*Azimov Abdulla Aliyarovich*

*Termiz Davlat Universiteti*

*Tarix fakulteti mamlakatlar va  
mintaqalararo ta‘lim yo‘nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o‘zbek xalq ijrochilik san‘ati tarixi va ijro turlari haqida . Raqs maktablari va yurtimizdagi hozirda faolyati olib borayotgan raqs maktablari haqida so‘z boradi.

**Tayanch so‘zlar:** Ashula, raqs , mavrigi, Naqsh bezak, qo‘shiq, an‘anaviy, musiqa, to‘y ,marosim,

Katta ashula Farg‘ona vodiysida shakllangan va rivojlangan ijrochilik uslubi bo‘lib, Farg‘ona, Namangan, Andijon va Toshkent viloyatlarida keng tarqalgan. Katta ashula ijrochilari tarkibida Farg‘ona vodiysida yashagan o‘zbek, tojik, uyg‘ur, turklarni uchratish mumkin. Muqaddam katta ashula qo‘shni davlatlar – Tojikistonning Xo‘jand, Qozog‘istonning Chimkent, Jambul (Taraz), Qirg‘izistonning O‘sh viloyatlarida yashovchi o‘zbeklar tomonidan ham ijro etilgan.

Katta ashula aksariyat hollarda muqim shakllangan guruhlar tomonidan ijro etiladi. Guruhlar professional ijrochilardan ham, havaskor ijrochilardan ham tashkil etilishi mumkin. Professional guruhlariga O‘zbekiston xalq hofizlari Beknazar Do‘stmurodov, Soyibjon Niyozov, Abdunabi Ibragimovlardan tashkil topgan guruhni, havaskor ijrochilar guruhiga Farg‘ona viloyati Toshloq tumanidagi “Chorgoh” (Rahbari Turdiali Sharipov) guruhini misol keltirish mumkin.

XX asr o‘rtalarida katta ashula ayollar tomonidan ham o‘zlashtirilib, Xalima Nosirova, Zaynab Polvonova va Fotima Boruxovalar tomonidan birgalikda ijro etilgan. 80-yillarda katta ashula ijrochiligi Munojot Yo‘lchiyeva, Zamira Suyunova, Matluba Dadaboyeva, Hurriyat Isroilovalarning, XXI asr boshida esa Minavvar Chavarova va Dilnura Qodirjonovalar repertuaridan ham joy oldi.

Katta ashulada an‘anaviy ravishda o‘zbek klassik she‘riyatining vakillari Alisher Navoiy, Mashrab, Amiriy, Nasimiy, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiylar, zamonaviy shoirlar Chustiy, Habibiy, Charxiy, Miskin, Sobir Abdullo, Akmal Po‘lat, O‘tkir Rashid, Erkin Vohidov va boshqalarning aruz vaznidagi asarlaridan foydalaniladi. Shu

bilan bir qatorda xalq soʻzlaridan foydalanilgan katta ashulalar ham ijro etiladi. Bunga misol sifatida Katta Fargʻona kanali qurilishi davrida dunyoga kelgan “Kanal”, mehnatkashlarga bagʻishlangan “Qoyilman”, “Mehnat ahli”, “Aziz dehqonlar”ni keltirish mumkin.

Katta ashula ijrosini tahlil etgan holda uning quyidagi yoʻnalishlarini koʻrsatish mumkin:

1. “Anʻanaviy” – ikki va undan ortiq xonandaning anʻanaviy ravishda musiqa cholgʻulari joʻrligisiz ijrosi (“Bir kelsun”, “Adashganman”, “Soʻrmaysan”, “Judo qilma” va boshqalar).

2. “Yovvoyi maqom” – maqomlar (Chorgoh, Ushshoq, Bayot kabi) tarkibiga kirgan ashulalarning ikki va undan ortiq xonandalar tomonidan cholgʻu joʻrligisiz ijrosi (“Yovvoyi Ushshoq”, “Yovvoyi Chorgoh”, Patnusaki Bayot”, “Likobi Segoh” va boshqalar).

3. “Yovvoyi ashula” – ashula janrida yaratilgan asarlarning yakkaxon yoki xonandalar guruhi tomonidan ijrosi (“Yovvoyi Tanovar”, “Yovvoyi Munojot” va boshqalar).

4. “Yakkaxonlik” – yakka xonandaning cholgʻu ansambli yoki yakka cholgʻu joʻrligidagi ijrosi (“Ohkim”, “Guluzorim qani”, “Topmadim”, “Yolgʻiz”, “Hanuz” va boshqa). Bu holatda cholgʻular ikkinchi xonanda vazifasini bajarib, yakkaxonning nafas rostdab olishi uchun imkoniyat yaratadi.

5. “Cholgʻu yoʻllari”. Bunda katta ashula musiqasi cholgʻularning oʻzida ijro etiladi va asosan nay, surnay, gʻijjak, tanbur, dutor cholgʻularidan foydalaniladi (“Yovvoyi Chorgoh”, “Yovvoyi Tanovar” va boshqalar).

“Katta ashula” iborasining ushbu ijro turida ishlatilishi turli joyda turlicha izohlanadi. Misol uchun Qoʻqon va Fargʻona ijrochilari buni ikki va undan ortiq xonandalar tomonidan cholgʻu joʻrligisiz, ochiq havoda, odamlar koʻp toʻplanadigan joyda ijro etilishiga bogʻlashsa, Namangan, Andijon va Toshkent ijrochilari ijroda ishtirok etadigan xonandalarning kuchli tembr, katta diapazonli ovozi boʻlishi shartligi va undagi soʻzlarning musiqa joʻrligidagi ifodasi har bir tinglovchiga yetkazilishi shartligiga bogʻlashadi. Xoʻjandlik ijrochilar katta ashuladagi diniy-falsafiy mazmun va ijroda katta avj – kulminatsiya ijrosi uchun talab etiladigan kuchli va jarangdor ovoz zaruratidan kelib chiqib shunday nomlanishga ega boʻlganligini eʼtirof etishgan.

XX asrning oʻrtalariga davrda katta ashula ijrochilari “katta ashulaijrochilari “katta ashulachi”, “ustoz”, “qori”, “hofiz” deb atalib, ular toʻylarda, katta bayram va sayillarda oʻz mahoratlarini namoyish etishgan. Oʻsha davrda Fargʻona vodiysida Mamatbuva Sattorov, Boltaboy Rajabov, Erka qori Karimov, Xamroqul qori Toʻraqulov, Sherqoʻzi Boyqoʻziyev, Akbar qori Haydarov, Joʻraxon Sultonov, Maʼmurjon Uzoqov va ularning shogirdlari Qoʻqon, Margʻilon, Toshkent, Namangan,

shuningdek, Tojikistonning Xo‘jand, Qirg‘izistonning O‘sh, Qozog‘istonning Chimkent viloyatlarida katta ashula ijrochiligi bilan shug‘ullanishgan.

Katta ashula ijrochiligi asosan “ustoz-shogird” an‘naviy tizimida og‘zaki ravishda o‘zlashtirilgan.

Katta ashulaning paydo bo‘lish tarixi, yozma manbalarda berilishicha, IX-XIII asrlarga borib taqaladi. Tarixchi-sharqshunos A.Semyonovning ma‘lumotiga ko‘ra o‘sha davrlarda “samoyi” yoki “honaqoyi” uslubidagi asarlar patnis bilan ijro etilgan. XV asrda yashab ijod etgan Alisher Navoiy ijodida ayollarga murojaat sifatida aytiladigan “ayolg‘u” va “naqsh” janrlariga murojaat etilgan. Aslida bunday janr badihago‘y hofizlar ijodiga xos bo‘lgan. 1870 yilda Rossiyadan Toshkent shahriga kapelmeyster lavozimiga ishga kelgan Avgust Eyxgorn milliy musiqa cholg‘ularini to‘plash qatorida ijrochilarni, xususan milliy qo‘shiq va kuy ijrochilarini ham o‘rganishga harakat qilgan. Uning qoldirgan qo‘lyozma va nashr etilgan ishlarida Qo‘qon va Andijonda musiqa cholg‘ulari jo‘rligisiz ikki kishi tomonidan cho‘zib ijro etiladigan qo‘shiq haqida ma‘lumotlar uchraydi.

Katta ashula yana “likobi ashula”, “patnisaki ashula” deb ham ataladi. Buning sababi, ijro paytida xonandalar qo‘lida tutib turiladigan likobcha yoki patnisda bo‘lsa kerak. Chunki, katta ashula ijrosi davomida xonandalar ana shu predmetlarni ushlab turib, undan ovoz yo‘nalishini o‘zgartirish, zarur joylarida silkish yo‘li orqali bir-biriga ijro tezligini bildirish va (bizning nazarimizda) o‘z ijrosini o‘zi ham yaxshi eshitishi uchun tovushni qaytarish uchun foydalanishadi. Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, katta ashula ijrochilari tarelkalarni osmonga irg‘itib, turli jonglyorlik elementlarini ham bajarish orqali tomoshabinlarning e‘tiborini tortgan ekan.

Katta ashula ijrosi xonandadan nafaqat yodlangan matni o‘rgatilgan musiqaga tushirib, baland ovozda kuylab berish, balki ijro jarayonida o‘ziga hos badihago‘ylik hislatlarini namoyish etish orqali ijroni boyitish iqtidorini ham talab etadi. Shuning uchun ham katta ashula har kim tomonidan ham ijro etilavermaydi. Uni ijro etish uchun tabiiy xotira va kuchli ovozdan tashqari mashaqqatli mehnat va sabr-qanoatni talab etadi.

Hozirda katta ashula ijrochiligi an‘naviy xonandalik yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchi va talabalarning tegishli fan dasturlariga ham kiritilmoqda. Katta ashula ijrochiligini targ‘ib etish, mohir ijrochilarni kashf etish va elga tanitish maqsadida har ikki yilda bir marotaba Madaniyat va sport ishlari vazirligining Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma‘rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi tomonidan “Katta ashula ijrochilari va maqom jamoalarining Respublika ko‘rik-tanlovi” o‘tkazib turiladi. Shunday tadbirning so‘nggisi 2010 yilda Andijon shahrida o‘tkazildi. Bundan tashqari, Respublika miqyosida o‘tkaziladigan yirik ommaviy-madaniy tadbirlar, umumxalq bayramlarning dasturiga katta ashula ham kiritiladi. Maktab yoshidagi bolalarning professional san‘atkorlar bilan birgalikda katta ashula

ijrosi har ikki yilda bir marotaba Samarqand shahrining Registon maydonida o'tkaziladigan "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivali dasturiga kiritilganligining guvohi bo'lganmiz.

O'zbek musiqasida hududlarga xos tarzda shakllangan turkumlar milliy musiqa merosimizning anchagina qosmini tashkil etadi. Misol uchun Buxoro va Samarqandda shakllangan "Buxorcha" va "Mavrigi", Xorazmda shakllangan "Suvoriy" va "Lazgi", Farg'oga-Toshkent hududiga xos "Tanovar", dasht va tog'li halqlarga xos "Qarsak"lar shular jumlasidandir.

Tanovar (forscha – jasur, qudratli, kuchli) - o'zbek ijrochilik san'atida keng tarqalgan xalq va mumtoz aytim-ashula va cholg'u yo'llarida namoyon bo'ladi. Odatda "Tanovar" iborasi ikki so'zdan tashkil topgan: "tan" - ya'ni jismni, "ovar" – esa zavq olib kelish ma'nolarini anglatadi. Ushbu ibora amaliy san'atdan kelib chiqqan va iste'molga kirib kelgan: kosibchilik amaliyotida xom ashyo bilan ishlashining ilk jarayoni, oddiy terini moslab (oshlab) berish bilan bog'liq (masalan, mahsi tikilishidagi murakkab jarayon yoki tikilgan mahsining g'ich-g'ich tovushlarni chiqarishi "tanovar" deyilgan). Tanovarning dunyo qilishi ham bir kosobning ijodi bilan bog'liqdir - o'z sevgilisiga atagan maktub. Umuman o'zbek musiqasi madaniyatida, ayniqsa, Farg'ona vodiysida keng tarqalgan xalq qo'shig'i, xalq she'riyati asosida yaratilgan va ommaviylashgan. Unda o'zbek qizining sevgilisi bilan uchrashish va visolga yetishi muqarrarligi aks ettirilgan.

Tanovarning xalq aytim yo'lidagi "Qora soch", "Sumbula" (xalq so'zlari), "Endi sendek" (Muqimiy she'ri) variantlari dutor jo'rnovozligida talqin etilgan bo'lib, keyinchalik uning mumtoz ashula va cholg'u yo'llari shakllangan, jumladan, "Tanovar", "Adolat tanovari", "Yovvoyi yoki Da'di tanovar", "Farg'onacha Shahnoz", "Qo'qoncha tanovar", "Marg'ilon tanovari", "Namangan tanovari", "Yangi tanovar" kabi lokal variantlari ijod etilib, xalqimiz orasida ommalashib ketgan. Tanovar yo'llariga ko'pgina o'zbek xonandalari va bastakorlari yondoshgan holda uning noyob va o'zgacha ijod va ijro talqinlarini yaratilishiga muvaffaqiyat bo'lishgan. Bu asar mazmunan, shaklan va o'zining kuychanligi, hayajonligi bilan ajralib turadi. Kuyning keng rivoji, ohanglar bezaklar bilan ko'proq boyitilishi, ohangning sadolanishi asarning ehtirosli, shirador va ta'sirchanligi chiqishi tinglovchiga zavq-shavq va xuzur baxsh etadi.

Tanovarning mumtoz ashula yo'llarida o'zbek ayolining ma'naviy go'zalligi o'z aksini topgan. Tanovarning boshlang'ich ohanglari, mustasnosiz, o'rta pardalarda joylashgan bo'lib, ijro jarayonida asta-sekin rivojlanib (kuy diapazoni kengayib), avj qismida o'zining ta'sirchanlik holatiga olib keladi. Unda tinglovchini ham, ijrochini ham hayajonli bir tuyg'uni his etishiga va ikkiyoqlama jonli va dardli xususiyat kasb etadi. Umuman olganda ashulaning har bir obrazi va har bir shakl tuzilmasi tarkibida insonning ma'naviy dunyosi o'z aksini topadi. Tanovarning turli janrlar tarkibi keng

tarqalgan: qo‘shiq (Qora soch), ashula yo‘li (Endi sendek, Adolcha), katta ashula (Yovvoyi tanovar), ashula turkumi (Tanovar I-V), ashula (bastakorlik ijodiyotida, “Ul kun jonon” – B.Mirzayev, “Yovvoyiy tanovar” - Jo‘raxon Sulstonov, “Tanovarni tinglab” - A.Ismoilov).

Tanovarlarning cholg‘u yo‘li ham mavjud bo‘lib, dutor, tanbur, g‘ijjak, chang uchun ijod etilgan, jumladan, “Qo‘qon tanovari” dutor uchun, “Turg‘un tanovari” dutor, tanbur va sato uchun, “Gulbahor va Tanovar” chang uchun (Gulbahor kuyi “Dugoh-Husayniy IV” ohangi asosida ijod etilgan). Tanovar – bu musiqiy shakl va usulning nomlari hamdir.

Mashhur o‘zbek raqsi - Tanovar ilk bor Mukarrama Turg‘uboyeva tomonidan XX asrning 40-chi yillarida sahnaga olib chiqilgan va o‘ziga xos raqs san’ati asari sifatida ommashib ketgan. Kuy tuzilishi yuqori pardalardan boshlanib, o‘zining asl yo‘liga o‘tadi va ushbu ohang rivoj olib raqs harakatlari bilan mutanosibligida cholg‘u ansambli jo‘rnavoziqligida talqin etiladi.

Suvora (forscha “suvoriy” – otliq) – Xorazm hududida keng tarqalgan yirik ashula yo‘li, Xorazm maqomlari tarkibidagi ashula yo‘llari. Suvora o‘tmishda tasavvuf oqimining musiqa san’atidagi ko‘rinishidir. Suvoralar, qadimda diniy so‘zlar bilan aytilib, ijrochilarni “go‘yanda” (aytimchi) deganlar. Suvora so‘zi “suvoriy” so‘zidan chiqqanligi bejis emas, chunki ustozlarning aytishicha Suvoralarning ritm, doira usullari otning oyoq tovushi holatidan olingan deyishadi. Shuning uchun ham musiqa ijodiyotida ot bilan bog‘liq asarlar juda ko‘p uchraydi. Hozirgi kunda Suvora ashula yo‘li, cholg‘u yo‘li va maqomlar tarkibidagi cholg‘u va ashula yo‘llari hamdir. Suvoralarning bizgacha beshta asosiy yo‘li va yigirmaga yaqin Savti suvora va Ufori suvorolari yetib kelgan. Suvoraning ashula yo‘li oddiy 2/4 o‘lchovidagi doira usulida mumtoz shoirlarning she‘rlari asosida ijro etiladi. Eng qadimiy Ona suvora (Katta suvora yoki Toj suvora ham deyiladi), Ogahiy va Mashrab so‘zlari bilan aytiladi. Ijro uslubi yakkanavoz chol-u (tanbur, dutor yoki tor) jo‘rnavoziqligida. Suvora ashula yo‘llari orasida Chapandozi suvora, Yak parda suvora, Kajhang suvora, Qo‘sh (Xush) parda suvora, Besh parda suvora kabi asarlar keng tarqalgan. Savti suvora 12 qismi va undan ko‘p qismli bo‘lishi mumkin, undan keyin Ufori savti suvora va Gul ufor savti suvoralar ham ijrochilik amaliyoti bo‘lgan. Suvoralar Xorazm maqomlari turkumining mashhur bo‘lgan ashula yo‘llari. Maqomlarda asosiy sho‘balardan keyin o‘rin olgan. Usullari murakkab 13/4 o‘lchovida. Shuningdek oddiyroq 6/8, 3/4, 3/8 o‘lchovidagi suvora ashula yo‘llari ham mavjud. Yirik Suvora ashula turkumlari tarkibida asosiy Suvoralardan tashqari ikkitadan Savt va Uforlar ijro etiladi. Cholg‘u yo‘llari o‘ziga xos kuylari va usullari bilan ajralib turadi, jumladan, Suvora I - III. Farg‘ona vodiysida Suvora surnay cholg‘u yo‘llari ham keng tarqalgan. Ijrochilik amaliyotida mashhur xonandalar tomonidan yaratilgan Suvoralar mavjud – Suvorai Komil (Komiljon Otaniyozov ijodi), Qorchmoniy suvora (Hojixon Boltayev), Indamas suvora

(Quvondiq Iskandarov), Go‘jayi suvora (Ozod Ibrohimov), Nim parda suvora (Rahmatjon Qurbonov) i b. Suvoralar ijrochilari orasida Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyshukurov, Madraim Sheroziy va b., jumladan, Hojixon Boltayev repertuarida 50 ortiq Suvora maqom ashula yo‘llari, ashula turkumlari, ashula yo‘llari o‘rin olgan. Suvora ashula yo‘llari asosida Xorazmda xonandalarning ijodiy musibaqalari “Diyralashma” o‘tkaziladi (bir kuy asosida turli mavzuidagi she‘rlar ijro etilishi lozim). Suvoralar asosida zamonaviy estrada qo‘shiqlari ham yaratilmoqda (Og‘abek Sobirov, O‘lmas Olloberganov).

Xorazm vohasiga xos yana bir musiqiy va xoreografik turkum - “Lazgi” ustida alohida to‘xtalib o‘tish o‘rinli. Bunda asosan musiqa ham raqsga monand sekin va oddiy harakatlar bilan boshlanadi – oldin barmoqlar, bilaklar, yelka va keyin butun tana jonlana boshlaydi. So‘ngra birdaniga qo‘l, oyoq, tana ishtirok etadigan murakkab harakatlar ulanib ketadi. Kuyning bir qismi takrorlangan holda raqs harakatlari almashib boradi. Kuy xarakteri o‘zgarishi va sur‘at tezlashishi bilan raqs tobora qizg‘inlasha borib, keskin holda tamom bo‘ladi. Erkaklar (jangovar, qahramonlik ruhida) va ayollar (lirik, hazilomuz) raqslari bilan farqlanadi. Hozirgi davrda Xorazmda lazgi raqsining 9 turi mavjud: “Qayroq lazgisi”, “Kimning sevar yorisan”, “Loyiq”, “Sani o‘zing bir yona”, “Gal-gal” va boshqalar. “Lazgi”ning kuy va usullaridan SH.Ramazonovning “Xorazmcha syuita”sida, M.Yusupovning “Xorazm qo‘shig‘i” operasi va “Gulsanam” baletida, B.Giyenkoning “Xorazm mavzuidagi syuita”da, S.Yudakovning “Xorazmcha bayramona yurish”ida unumli foydalanishgan.

Naqsh (ma‘nosi – bezak, qo‘shiq, shakl) – o‘zbek an‘naviy musiqasida aytim va ashula yo‘llari. Farg‘ona vodiysida tarqalgan to‘y marosim qo‘shig‘i - erkaklar tomonidan cholg‘u jo‘rligisiz kuyovni kelinni o‘yiga kuzatish jarayonida aytilgan, yakka guruh tarzida. Xalq she‘riyati qo‘llangan. Musiqiy qonuniyatlari va ijro uslubi bo‘yicha o‘ziga xoslik bilan ajralib turadi. Marosim qo‘shiq turkumi sifatida mavjud, uning tarkibida: Katta naqsh yoki naqshi kalon, O‘rta naqsh yoki naqshi miyona, Kichik naqsh yoki naqshi xurd, Terma naqsh yoki naqshi oddiy (naqshi xalqiy). Katta naqsh yetuk xonandalar tomonidan galma-gal, erkin uslubda baland ovozda aytilgan bo‘lib, katta ashula uslubiga yaqin. Qolgan naqshlar yakka guruh tarzida kuylanadi: terma naqsh guruh shaklida tezroq usulida ijro etilgan.

Naqsh - o‘zbek mumtoz musiqasida keng tarqalgan ashula yo‘li. O‘rta asr risolalarida naqsh kuy, vazn va she‘r tuzilmasilaridan iborat mukammal musiqiy shakl, misol uchun Naqshi Bayot – o‘ziga xos murakkab ashula yo‘li, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari va Xorazm maqomlari turkumlari tarkibidagi ashula yo‘li. Maqomlardagi Savt uslublariga yaqin va o‘xshash; talqin yoki nasr usullariga ergashgan shakl, masalan, Segoh naqshi. Xorazm tanbur chizigidagi dutor maqomlarida ko‘pgina naqshlar keltirilgan - Naqshi Miskin, Naqshi Talqini Urganjiy, Naqshi Sadri Iroq va h.

Ushshoq (arabcha – oshiq) – oʻrta asr davrida tarqalgan Oʻn ikki maqom (Duvozdah maqom) tizimida muayyan maqom, Shashmaqom turkumida mashhur shoʻbaning nomi. Dastlab, bu maqom lirik kayfiyatlarni ifodalagan. Lirik (ishqiy) sheʼrlar bilan ijro etiladigan asar hamda oshiq tilidan aytilgani uchun unga “Ushshoq” nomi berilgan. Oʻrta asr olimlari Ushshoqni eng qadimgi, yaʼni birinchi maqom deb ataganlar (u Umm ul-advor – maqom doirasi onasi). Ushshoq Oʻn ikki maqom turkumida lad (tuzuk) sifatida ham maʼlum boʻlib, uning tovushqatori hozirgi miksolidiy (major lading VII pogʻonasi pasaytirilgan) ladiga mos keladi. Ushbu ladga mos keladigan cholgʻu va ashula yoʻllari ham Ushshoq maqomi deb ataladi; u Ushshoq maqomi va Moya ovozi pardalari asosida yaratilgan. Oʻzbek va tojiy xalqlari musiqa merosida Ushshoq mustaqil maqom sifatida yetib kelgan. Ammo uning cholgʻu va, ayniqsa, ashula yoʻllari keng tarqalgan. Ushshoqning dastlabki jonli namunalari qanday boʻlganini hozirgi kunda tasavvur etish kiyin. Lekin uning kuy tuzilishini bizgacha yetib kelgan Shashmaqomdagi Rost maqomining Ushshoq nomi bilan atalgan shoʻbalarining kuy va lad tuzilishi Oʻn ikki maqom tizimidagi Ushshoqning lad asosi aynan bir xil ekanini koʻrish mumkin. Rost maqomidagi Muhammasi Ushshoq (cholgʻu yoʻli), Talqini Ushshoq, Nasri Ushshoq va Ufari Ushshoq (1 guruh ashula yoʻllari), Savti Ushshoq (2 guruh ashula turkumi) mashhur boʻlgan shoʻbalardir. Muhammasi Ushshoqni kuy tuzilishi, shakli, doira usuli juda murakkab boʻlsada, uning ohanglari va variantlari boshqa maqomlarning Muhammaslarida uchratish mumkin. Ushshoq ashula yoʻllari ham murakkab, kuylari rivojlangan, yorqin va jozibadorli, avjlarida keng tarqalgan namudlar (Namudi Uzzol va Namudi Muhayyari Chorgoh) dan foydalanilgan, emotsional jihatdan taʼsirchanli. Buzruk va Rost maqomlari ashula yoʻllari shoʻbalarining avjlarida Ushshoq nomi bilan atalgan namud koʻproq uchraydi (Nasri Uzzol shoʻbasi, Koʻcha bogʻi va Qoʻshchinor ashula yoʻllarining avjida Namudi Ushshoqdan foydalanilgan). Xorazm maqomlari turkumida Ushshoq shoʻbalari va Namudi Ushshoq ham uchraydi.

Mavrigi - Buxoro musiqa anʼanalariga xos erkaklar folklor janri. Mavrigi Buxoro amirligi davrida Mavrdan koʻchib kelgan aholining musiqiy ijodi sifatida shakllanib, keyinchalik oʻzbek eli orasida ham ommaviylashib ketgan. Oʻziga xos ijro anʼanaviy ijro qoidalariga boʻysunadigan guruhlangan qoʻshiq va kuylardan tashkil topgan. Ohista boshlanadi, keyin tezlashadi, dastlab asosan doira joʻrligida, soʻngra esa boshqa musiqa asboblari ham qoʻshiladi, raqs elementlari boʻladi, eng xushohang kuyli shoʻx maromlar bilan avjiga chiqadi. Ijroning asosiy qismlari Shahd (muqaddima), Taraqqiy (rivoj) va Pirovard (yechim) deb ataladi va ular bir-biri bilan zanjir kabi uzviy bogʻlangan.

Raqs sanʼati. Raqs sanʼati insonning mehnat jarayoni va borliqdan olgan hissiy taassurotlari bilan bogʻliq holda yuzaga kelgan. Bu sanʼat dastlab qoʻshiq va soʻz bilan bogʻliq boʻlib, keyinchalik mustaqil sanʼat turiga aylangan. Raqs asrlar davomida

takomillashib, barqaror shakllarga ega bo'la borgan. Ijrochining kiyimi raqs obrazlariga aniqlik bergan.

Har bir xalqning raqs an'analari, ijro uslubi, plastik tasviriy vositalari bo'lib, ular tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlar ta'sirida tarkib topib rivojlangan. O'zbek raqslari mazmunini ifodalashda ijrochilar tepki, qarsak, zangdan ham foydalanganlar. Ayrim raqslar ro'mol, piyola, qadah kabi buyum bilan ijro etilgan, ba'zan ijrochi xalq cholg'u asboblari (qayroq, doira, nog'ora va h.k.) da o'ziga o'zi jo'r bo'lgan.

Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida topilgan qoya tosh tasvirlari arxeologik topilmalar bu yerda raqs juda qadimiyligidan guvohlik beradi. Zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto» davridayoq raqs san'ati shakllanib, xalq va professional raqs – ikki yo'nalishda rivojlanishga kirishgani haqida tarxiiy ma'lumotlar bor. Shuningdek, turli taraqqiyot bosqichlarida yurtimizda raqs va o'yinlar bir-biriga ta'sir ko'rsatishi natijasida «Beshqarsak», «Katta o'yin», «Lazgi», «Kema o'yin», «Ashshadaroz» kabi qadimiy o'yinlar vujudga kelgan.

O'zbekiston hududidagi raqs san'ati juda qadimiy ildizlarga asoslangan

Bo'lib o'zida halq og'zaki ijodiyoti, musiqa, qo'shiq va raqslarni mujassam etgan. Tarixdan bizgacha "katta o'yin" nomi bilan ma'lum doyra usullariga mos harakatlar asosiga qurilgan raqs san'ati, shuningdek "Xona bazm o'yin" nomi bilan maishiy raqslar yetib kelgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston hududida 5 ta raqs maktabi mavjud. Bular:

- Farg'ona-Toshkent maktabi;
- Buxoro maktabi;
- Xorazm maktabi;
- Surxon maktabi;
- Qoraqalpoq maktabi.

Xulosa. Qadimgi davrlarda ham o'zbek raqqosalari o'zlarining ajoyib san'atlari bilan mashhur edilar. Alisher Navoiyning zamondoshi bo'lgan mashhur raqqos Said Badrni butun Sharq tanir edi. Xalq go'zal raqslarning yaratilishi va ajoyib raqqosalar haqida ko'plab ulug'vor dostonlar va shoirona afsonalarni saqlab kelgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sayfullayev B., Yo'losheva S., Eshonqulov J., Ashirov A., Toshmatov O'. Nomoddiy madaniy meros – folklor ijro san'ati an'analari. O'quv qo'llanma. - T.: Navro'z, 2017.
2. O'zbek milliy folklor san'ati va etnomadaniy qadriyatlar. O'quv qo'llanma. - T.: Navro'z, 2014.
3. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi. YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, 2017.